



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **MIQDOR KONSEPTINING LINGVISTIK BIRLIKLAR TIZIMIDAGI REPREZENTATSIYASI**

**Axunova Moxidil Abduraxim qizi**

Fargʻona davlat universiteti, tayanch doktorant

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada miqdor konseptining til tizimidagi reprezentatsiyasi masalasi oʻzbek tili materiallari asosida tadqiq etiladi. Miqdorning fonologik, morfologik, leksik-semantik va sintaktik sathlarda namoyon boʻlish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida miqdor konseptining nafaqat son kategoriyasi orqali, balki tilning barcha sathlarida turli lisoniy vositalar yordamida ifodalanishi asoslab beriladi. Shuningdek, miqdor konseptining graduonimik tabiatiga eʼtibor qaratilib, uning til va tafakkur oʻrtasidagi bogʻliqlikni aks ettiruvchi universal kognitiv kategoriya ekanligi koʻrsatib beriladi.

**Kalit soʻzlar:** miqdor konsepti, lingvistik birlik, reprezentatsiya, son kategoriyasi, graduonimiya, lingvomadaniyat, kognitiv tilshunoslik, semantika.

## **РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА КОЛИЧЕСТВА В СИСТЕМЕ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ**

**Ахунова Мохидил Абдурахим кизи**

Ферганский государственный университет, базовый докторант

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается проблема репрезентации концепта количества в языковой системе на материале узбекского языка. Анализируются особенности проявления количества на фонологическом, морфологическом, лексико-семантическом и синтаксическом уровнях. В ходе исследования обосновывается, что концепт количества выражается не только через категорию числа, но и посредством различных языковых средств на всех уровнях языка. Особое внимание уделяется градуонимической природе концепта количества, показывается, что он является универсальной когнитивной категорией, отражающей связь языка и мышления.

**Ключевые слова:** концепт количества, лингвистическая единица, репрезентация, категория числа, градуонимия, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, семантика.

## **REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF QUANTITY IN THE SYSTEM OF LINGUISTIC UNITS**

**Axunova Moxidil Abduraxim qizi**

Fergana State University, Doctoral Researcher

### **Abstract**

This article examines the problem of the representation of the concept of quantity in the language system based on materials from the Uzbek language. The features of the manifestation of quantity at the phonological, morphological, lexical-semantic, and syntactic levels are analyzed. During the research, it is substantiated that the concept of quantity is expressed not only through the category of number, but also through various linguistic means at all levels of language. Special attention is paid to the gradual (gradation-based) nature of the concept of quantity, demonstrating that it is a universal cognitive category reflecting the connection between language and thought.

**Keywords:** concept of quantity, linguistic unit, representation, category of number, gradation, linguoculturology, cognitive linguistics, semantics.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikda antropotsentrik paradigma shakllanishi natijasida til hodisalarini inson tafakkuri, madaniyati va bilish jarayonlari bilan uzviy bogʻliq holda oʻrganish tendensiyasi kuchaydi. Natijada konsept, konseptual maydon, lingvomadaniy birlik, kognitiv model kabi tushunchalar ilmiy muomalaga keng kirib keldi. Bunday yondashuv til birliklarini faqat grammatik yoki struktur jihatdan emas, balki insonning olam haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi vosita sifatida ham talqin qilish imkonini berdi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Mazkur tadqiqotda miqdor konsepti oʻzbek tilshunosligida ilk bor toʻrt sath – fonologik, morfologik, leksik-semantik va sintaktik – kesimida bir tizim sifatida kompleks tahlil qilinadi. Mavjud tadqiqotlarda (F. Safarov, A. Nurmonov va boshqalar) miqdor asosan son-miqdor maydoni yoki son turkumi doirasida oʻrganilgan boʻlsa, ushbu ishda miqdor konsepti anʼanaviy grammatik kategoriyadan keng koʻlamli kognitiv-semantik maydon sifatida qaraladi. Shuningdek, oʻzbek tilidagi

miqdor birliklarining graduonimik qator hosil qilishi va mazkur qatorlarning markaz-periferiya tamoyili asosida tashkil topishi birinchi bor tizimli tarzda asoslab beriladi. Miqdorning fonologik sathda subyektiv kvantifikatsiya vositasi sifatida namoyon bo'lishi va morfologik daraja kategoriyasining miqdor konsepti bilan uzviy bog'liqligi ham yangi nuqtai nazar sifatida ilmiy muomalaga kiritiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik metodologiyasiga asoslanildi. Miqdor konseptining til tizimidagi namoyon bo'lish shakllarini aniqlashda tavsifiy tahlil usulidan foydalanildi. Lingvistik birliklarning miqdor semasi yuzasidan o'zaro munosabatini o'rganishda komponent tahlili qo'llanildi. Graduonimik qatorlarni belgilashda semantik maydon metodi, miqdorning turli sathlar bo'yicha ifodalanishini yaxlit ko'rsatishda esa markaz-periferiya modeli asosiy nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Konseptual metaforalarni aniqlashda J. Lakoff va M. Jonsonning konseptual metafora nazariyasidan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini o'zbek adabiy tili, so'zlashuv nutqi va badiiy matnlardan to'plangan tiliy materiallar tashkil etadi.

Miqdor konsepti inson tafakkurining eng qadimiy va universal konseptlaridan biri hisoblanadi. Insoniyatning borliqni idrok etishi, predmet va hodisalarni qiyoslashi, o'lchashi, sanashi hamda tasniflashi aynan miqdor kategoriyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli miqdor konsepti matematika, mantiq, falsafa, psixologiya va tilshunoslik kabi ko'plab fanlarning tadqiqot obyektiga aylangan [7; 56-b.].

Tilshunoslikda miqdor masalasi uzoq vaqt davomida son kategoriyasi doirasida o'rganilib kelgan bo'lsa-da, zamonaviy kognitiv va lingvomadaniy tadqiqotlar uning bundan ancha keng hodisa ekanligini ko'rsatmoqda. Miqdor faqat sonlar orqali emas, balki ko'plik kategoriyasi, daraja shakllari, takroriy birliklar, hisob so'zlari, metaforik vositalar, graduonimik qatorlar hamda sintaktik konstruksiyalar orqali ham ifodalanadi [13; 9–12-b.].

O'zbek tilshunosligida son-miqdor maydoni muammolari F. Safarov tomonidan maxsus tadqiq etilgan bo'lib, olim son-miqdor mikromaydonining tarkibi va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlarini atroflicha yoritgan. Shuningdek, A. Nurmonov [12; 5–12-b.], N. Mahmudov, A. Hojiyev, Z. Xolmonova singari olimlarning ishlari miqdor konseptining turli jihatlarini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazardan konsept inson ongida shakllanadigan va til vositasida ifodalanadigan murakkab mental birlik hisoblanadi. E. S. Kubryakovaning ta'kidlashicha, konsept bilimlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishning asosiy birligi sifatida namoyon bo'ladi [6; 215–217-b.]. Shu jihatdan qaralganda, miqdor konsepti insonning predmet va hodisalarning soni, hajmi, darajasi, intensivligi va chegarasi haqidagi bilimlarini umumlashtiruvchi mental tuzilma hisoblanadi.

Miqdor konseptining universalligi uning barcha tillarda mavjudligi bilan izohlanadi. Biroq ushbu konseptning verbalizatsiyasi har bir xalqning madaniyati, dunyoqarashi va tarixiy tajribasiga qarab o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shu sababli miqdor konsepti lingvokulturologik tadqiqotlarning ham muhim obyektlaridan biri sanaladi.

Lingvomadaniy nuqtai nazardan miqdor nafaqat aniq sonlarni, balki xalqning qadriyatlarini, stereotiplari va ramziy tasavvurlarini ham aks ettiradi. Masalan, o'zbek madaniyatida qirq, yetti, ming kabi sonlarning alohida ramziy ahamiyat kasb etishi buning yaqqol dalilidir. “Qirq kun”, “yetti avlod”, “ming rahmat” kabi birliklar real matematik miqdordan ko'ra ko'proq madaniy va emotsional mazmun yuklaydi.

Miqdor konseptining muhim xususiyatlaridan biri uning graduallik bilan bog'liqligidir. Gradatsiya yoki darajalanish jarayonida predmet va hodisalar ma'lum mezon asosida ko'proq-kamroq, yuqoriroq-pastroq, kuchliroq-zaiyroq kabi nisbatlarda baholanadi. Natijada miqdor konsepti son bilan cheklanib qolmay, sifat va holat kategoriyalari bilan ham uzviy aloqaga kirishadi.

Shunday qilib, miqdor konsepti til tizimining barcha sathlarida namoyon bo'luvchi, inson tafakkurining universal kategoriyalaridan biri bo'lib, uning lingvistik reprezentatsiyasini kompleks o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tilning fonologik sathi odatda ma'no farqlovchi tovush birliklari tizimi sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy lingvistik tadqiqotlar fonologik vositalarning nafaqat differensial, balki semantik va pragmatik funksiyalarni ham bajarishini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan qaralganda, miqdor konseptining ayrim ko'rinishlari fonologik sathda ham namoyon bo'ladi [5; 1–5-b.].

O'zbek tilida miqdor ma'nosining fonologik ifodalanishi asosan tovush cho'ziqligi, urg'u, intonatsiya va geminatsiya hodisalari orqali kuzatiladi. Ayniqsa, so'zlashuv nutqida miqdorning ortiqligi yoki kuchaytirilgan darajasi unilarni cho'zib talaffuz qilish yordamida ifodalanadi. Masalan, ko'p so'zining “ko'o'p”, katta so'zining “kaaatta”, ozgina so'zining “ooozgina” tarzida talaffuz qilinishi tinglovchi ongida oddiy miqdordan ortiqroq hajm yoki darajani tasavvur qilishga xizmat qiladi. Bunday holatlarda fonetik cho'ziqlik grammatik vosita sifatida emas, balki semantik-pragmatik vosita sifatida

faoliyat yuritadi [16; 18-b.].

F. Safarov son-miqdor maydonini tahlil qilar ekan, unilarni cho‘zib talaffuz qilishni miqdor ma’nosini ifodalovchi lisoniy vositalardan biri sifatida qayd etadi. Olimning fikricha, nutq jarayonida tovushning davomiyligi bilan predmet yoki hodisaning hajmi o‘rtasida assotsiativ bog‘lanish yuzaga keladi [14; 109-b.]. Mazkur hodisa miqdor konseptining inson tafakkuridagi analogik modellashtirish jarayonlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Fonologik sathda miqdor ma’nosining ifodalanishida geminata hodisasi ham alohida ahamiyatga ega. Geminatalar bir xil undoshlarning ketma-ket kelishi natijasida hosil bo‘lib, ayrim hollarda ma’no kuchaytirish vazifasini bajaradi. O‘zbek tilidagi bitta, ikkita, sakkiz, to‘qqiz kabi birliklarda kuzatiladigan qo‘sh undoshlar tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lish bilan birga, miqdor ifodasining shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi [17; 32–35-b.].

Fonetik cho‘ziqlikning miqdor konsepti bilan bog‘liqligi boshqa tillarda ham kuzatiladi. Ingliz tilida so‘zlovchilar “soooo much”, “veeery big” kabi shakllardan foydalanib, miqdor yoki darajaning yuqoriligini ifodalaydilar. Rus tilida esa “ооочень”, “мнооого” kabi shakllar keng tarqalgan. Bu holat miqdor konseptining fonetik vositalar orqali ifodalanishi universal xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi [3; 368-b.].

Miqdor ma’nosining fonologik ifodalanishida intonatsiya ham muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, hissiy-ekspressiv nutqda ma’lum bir bo‘lakning intonatsion jihatdan ajratilishi uning semantik yukini oshiradi. Masalan, “Juda ko‘p odam keldi” gapida ko‘p leksemasiga tushgan mantiqiy urg‘u miqdorning kattaligini yanada ta’kidlaydi.

Fonologik vositalar orqali ifodalanayotgan miqdor ma’nosi ko‘pincha aniq matematik qiymatni emas, balki subyektiv baholashni aks ettiradi. Shu sababli fonologik sathdagi miqdor ifodasi kognitiv tilshunoslikda “subyektiv kvantifikatsiya” hodisasi sifatida qaraladi [8; 76-b.]. Demak, fonologik sath miqdor konseptining periferik, biroq muhim reprezentatorlaridan biri hisoblanadi. Tovush cho‘ziqligi, geminatsiya, urg‘u va intonatsiya orqali miqdorning ortiqligi, kamligi yoki darajasi haqidagi tasavvurlar til egalariining ongida shakllantiriladi.

Miqdor konseptining lingvistik birliklar tizimidagi ifodalanishida morfologik sath alohida ahamiyatga ega. Chunki tilning aynan ushbu qatlamida miqdor ma’nosi grammatiklashgan va tizimlashgan holda namoyon bo‘ladi. Biroq miqdorni faqat son turkumi yoki ko‘plik kategoriyasi doirasida talqin qilish mazkur konseptning haqiqiy ko‘lamini to‘liq ochib bera olmaydi. O‘zbek tili materiallari asosida olib borilgan kuzatishlar miqdor ma’nosi morfologik tizimning turli qismlarida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi [14; 27–34-b.].

An’anaviy grammatikalarda miqdor, avvalo, son turkumi bilan bog‘lanadi. Darhaqiqat, sonlar miqdorni ifodalashning eng markaziy va eng aniq vositalaridan biridir. Biroq sonlar miqdor konseptining faqat yadroviy qismini tashkil etadi. Inson tafakkurida miqdor haqidagi tasavvurlar sonlardan ancha keng bo‘lib, u taxminiylik, darajalanish, jamlik, bo‘linish va umumlashtirish kabi semantik munosabatlarni ham qamrab oladi.

Bizningcha, son turkumining ichki tasnifi ham miqdor konseptining murakkab tabiatini aks ettiradi. Masalan, sanoq sonlar miqdorning aniq ko‘rinishini ifodalasa, chama sonlar inson tafakkuridagi noaniq kvantifikatsiya jarayonini namoyon etadi. O‘nlab, yuzlarcha, qirqtacha, minglab kabi birliklarda matematik aniqlik emas, balki taxminiy baholash ustunlik qiladi. Bu holat miqdor konseptining faqat hisoblash emas, balki interpretatsiya bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Morfologik sathda miqdor konseptining eng faol reprezentatorlaridan biri ko‘plik kategoriyasidir. O‘zbek tilidagi -lar affiksi an’anaviy ravishda ko‘plik ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi. Biroq nutqiy materiallar tahlili mazkur qo‘shimchaning funksional imkoniyatlari bundan ancha keng ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, “odamlar”, “kitoblar”, “daraxtlar” birliklarida real ko‘plik ifodalansa, “dadamlar”, “ustozlar”, “opamlar” kabi birliklarda hurmat va ijtimoiy masofa semalari yuzaga chiqadi. Demak, grammatik ko‘plik har doim ham matematik ko‘plikka teng kelmaydi [10; 191–198-b.].

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plik kategoriyasi ayrim hollarda miqdordan ko‘ra ko‘proq umumlashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, “Yoshlar kelajak bunyodkoridir” gapida yoshlar leksemasi aniq sanaladigan individlar yig‘indisini emas, balki muayyan ijtimoiy guruhni anglatadi. Bu holatda miqdor umumlashgan kollektiv tushunchaga aylangan.

Miqdor konseptining morfologik ifodasida daraja kategoriyasi ham alohida o‘rin tutadi. Odatda sifat va ravishlarning qiyosiy hamda ortirma darajalari belgi intensivligini ifodalovchi vositalar sifatida talqin qilinadi. Biroq tahlillarga ko‘ra, daraja kategoriyasining semantik asosida ham miqdoriy munosabat yotadi. Chunki katta – kattaroq – eng katta qatorida predmetning sifati emas, balki o‘lchamining miqdoriy

ko'rsatkichi o'zgaradi. Xuddi shuningdek, tez – tezroq – eng tez, baland – balandroq – eng baland kabi qatorlarda ham miqdoriy gradatsiya kuzatiladi.

Mazkur holat graduonimiya va miqdor konsepti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlandiki, daraja kategoriyasi miqdorning grammatiklashgan ko'rinishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Chunki darajalanish jarayonining mohiyatida ma'lum belgining ko'payishi yoki kamayishi yotadi.

Morfologik sathda miqdor ma'nosi olmoshlarda ham faol namoyon bo'ladi. Hamma, barcha, bari, jami, har kim, har narsa kabi birliklar jamlilik va umumlashtirish ma'nolarini ifodalasa, hech kim, hech nima, hech qachon birliklari miqdorning nol darajasini aks ettiradi. Bizning fikrimizga ko'ra, inkor olmoshlaridagi "nol miqdor" semasi miqdor konseptining o'ziga xos qutblaridan birini tashkil etadi.

Shuningdek, ravishlar tarkibida ham miqdor semasi muntazam ravishda uchraydi. Kam, ko'p, oz, sal, picha, xiyol, ancha, birmuncha, g'oyat, nihoyatda kabi birliklar harakat yoki belgining bajarilish darajasini ifodalab, miqdor konseptining dinamik ko'rinishini hosil qiladi. Ayniqsa, oz – sal – biroz – ancha – ko'p – juda ko'p qatori miqdorning graduonimik modelini yaqqol namoyon etadi. Shunday qilib, morfologik sathdagi tahlillar miqdor konseptining faqat son kategoriyasi bilan chegaralanmasligini ko'rsatadi. Sonlar, ko'plik shakllari, daraja kategoriyasi, olmoshlar va ravishlar birgalikda miqdor konseptining morfologik reprezentatsiya maydonini hosil qiladi. Ushbu maydonning markazida sonlar joylashgan bo'lsa, qolgan vositalar miqdorning turli semantik modifikatsiyalarini ifodalovchi periferik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Til tizimida miqdor konseptining eng faol va sermahsul namoyon bo'lish sohasi leksik-semantik qatlam hisoblanadi. Agar fonologik va morfologik sathlarda miqdor ko'proq grammatik yoki fonetik vositalar orqali ifodalansa, leksik sathda u bevosita semantik mazmunning tarkibiy qismiga aylanadi. Shu sababli miqdor konseptining lingvistik tabiatini ochishda leksik birliklarning tahlili alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, miqdor ma'nosi faqat son turkumiga mansub birliklar bilan chegaralanmaydi. Aksincha, o'zbek tilining lug'at tarkibida miqdor semasi yashirin yoki ochiq holda mavjud bo'lgan juda katta qatlam shakllangan. Mazkur qatlamga ko'p, kam, oz, mo'l, serob, talay, bisyor, behisob, sanoqsiz, cheksiz kabi birliklar kiradi. Ushbu leksemalarning umumiy xususiyati shundaki, ular aniq sonni emas, balki miqdor haqidagi insoniy tasavvurni ifodalaydi.

Bizningcha, miqdor konseptining leksik sathdagi asosiy xususiyati uning nisbiy tabiatga egaligidadir. Masalan, "ko'p" leksemasi har bir nutqiy vaziyatda turlicha miqdorni anglatishi mumkin. Bir kishi uchun yuz dona kitob ko'p bo'lsa, kutubxona fondi uchun bu miqdor juda kam hisoblanadi. Demak, miqdor semantikasi obyektiv matematik qiymatdan ko'ra ko'proq insonning baholash faoliyati bilan bog'liqdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, miqdor konsepti va baholash kategoriyasi o'rtasida yaqin munosabat mavjud. O'zbek tilidagi mo'l, serhosil, barakali, qutlug' kabi birliklarda miqdor ma'nosi ijobiy baholash bilan uyg'unlashadi. Aksincha, tanqis, kamyob, qashshoq, nochor kabi birliklarda miqdorning yetishmasligi salbiy baholashga sabab bo'ladi. Demak, miqdor konsepti til egasining aksiologik qarashlari bilan ham uzviy bog'langan.

Miqdor konseptining leksik reprezentatsiyasida sinonimik munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Ko'p – mo'l – serob – talay – bisyor qatori bir qarashda bir xil ma'noni ifodalaydigandek tuyuladi. Biroq ularning semantik intensivlik darajasi bir xil emas. Bizning kuzatishimizga ko'ra, mazkur birliklar miqdorning ortib borish darajasiga ko'ra graduonimik qator hosil qiladi:

ko'p → mo'l → serob → talay → bisyor → behisob.

Mazkur qatorning chap qismida nisbatan neytral miqdor bahosi joylashgan bo'lsa, o'ng tomonga siljigan sari miqdorning haddan tashqari ortiqligi ifodalanadi. Shu sababli bu birliklarni oddiy sinonimlar emas, balki miqdor konseptining darajalanish modelini hosil qiluvchi graduonimlar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Graduonimiya miqdor konseptining ichki mexanizmini tushuntirishda muhim nazariy vosita hisoblanadi. Chunki inson tafakkuri predmet va hodisalarni ko'pincha mutlaq emas, balki nisbiy miqdorlar asosida qabul qiladi. Natijada til tizimida ham "kam – oz – o'rtacha – ko'p – juda ko'p" kabi darajalanish modellari shakllanadi. Miqdor konseptining leksik-semantik ifodasida metaforik modellar ham faol ishtirok etadi. O'zbek tilida miqdorning kattaligi ko'pincha makon yoki hajm bilan bog'lanadi: dengizday sabr, tog'day g'am, olam-olam quvonch, dunyo-dunyo orzu. Mazkur misollarda real miqdor ifodalanmaydi, biroq inson ongida cheksizlik yoki nihoyatda katta hajm haqidagi tasavvur hosil qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, miqdor konsepti ko'pincha fazoviy konseptlar orqali

modellashiriladi. Boshqacha aytganda, inson mavhum miqdorni tushunishda konkret makon tajribasidan foydalanadi. Bu esa kognitiv tilshunoslikda konseptual metafora mexanizmining mahsuli sifatida izohlanadi.

O'zbek tilidagi frazeologik birliklar ham miqdor konseptining muhim reprezentatorlari hisoblanadi. Masalan, tomdan tarasha tushganday, igna bilan quduq qazimoq, dengizdan tomchi, qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq kabi iboralarda miqdor ma'nosi yashirin holda mavjud. Ayniqsa, dengizdan tomchi frazeologizmi butun va qism munosabatiga asoslangan miqdor modelini yaqqol namoyon etadi. Ushbu iborada kichik miqdorning ulkan miqdorga nisbatan ahamiyatsizligi ifodalanadi. Shuningdek, o'zbek tilidagi ayrim sifatlarning semantik tarkibida ham miqdor semasi mavjudligini kuzatish mumkin. Masalan, uzun, qisqa, katta, kichik, baland, past, keng, tor kabi sifatlarning tashqi ko'rinishda belgi ifodalovchi birliklar bo'lsa-da, ularning semantik asosida muayyan miqdoriy parametr yotadi. Uzunlik aslida masofa miqdorini, balandlik vertikal o'lcham miqdorini, kenglik esa gorizontal hajm miqdorini anglatadi. Shu asosda aytish mumkinki, miqdor konsepti til tizimida faqat sonlar orqali emas, balki sifatlarning ravishlar, metaforalar, frazeologizmlar va graduonimik qatorlar orqali ham ifodalanadi. Natijada leksik-semantik sath miqdor konseptining eng murakkab va eng keng reprezentatsiya maydonini hosil qiladi. Miqdor konseptining til tizimidagi reprezentatsiyasini faqat alohida leksemalar yoki grammatik shakllar orqali izohlash yetarli emas. Chunki miqdor ma'nosi ko'pincha sintaktik qurilmalar tarkibida yanada murakkab va keng ko'lamliligi semantik tuzilmalarga ega bo'ladi. Shu sababli sintaktik sath miqdor konseptining funksional namoyon bo'lishida muhim o'rin egallaydi. Miqdor konsepti sintaktik sathda kamida uch xil shaklda namoyon bo'ladi: bevosita miqdor ifodasi, nisbiy miqdor ifodasi va baholovchi miqdor ifodasi.

Bevosita miqdor ifodasi son va o'lchov birliklari ishtirokidagi sintaktik konstruksiyalar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, uchta kitob, yuz nafar talaba, ikki kilogramm olma, besh litr suv kabi birikmalarda miqdor aniq va o'lchab bo'ladigan ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bunday birliklar miqdor konseptining markaziy zonasiga mansub hisoblanadi. Chunki ular matematik aniqlikka ega bo'lib, kommunikativ noaniqlikni deyarli yuzaga keltirmaydi.

Nisbiy miqdor ifodasi esa aniq sonlar emas, balki qiyoslash va taqqoslash orqali shakllanadi. Masalan, avvalgidan ko'proq, undan kamroq, juda ko'p, birmuncha oz, anchagina katta kabi birliklarda miqdor obyektiv ko'rsatkich sifatida emas, balki boshqa bir miqdorga nisbatan baholanadi. Bu holatda miqdor konsepti inson tafakkurining qiyoslash mexanizmi bilan bog'lanadi.

Tadqiqot davomida aniqlandiki, sintaktik qiyoslash konstruksiyalari miqdor konseptining graduallik xususiyatini namoyon etuvchi asosiy vositalardan biridir. Inson ongida predmet va hodisalar ko'pincha mutlaq emas, balki nisbiy mezonlar asosida baholanadi. Shu sababli tilda ham "ko'proq", "kamroq", "eng ko'p", "eng kam" kabi birliklar faol qo'llanadi.

Baholovchi miqdor ifodasi esa ayniqsa badiiy va publitsistik matnlarda yaqqol kuzatiladi. Masalan, olam-olam quvonch, tog'day g'am, dengizdek sabr, bir dunyo ish, bir parcha odam kabi birikmalarda miqdor matematik o'lchovdan butunlay uzoqlashadi va emotsional baholash vositasiga aylanadi. Bunday konstruksiyalar orqali muallif yoki so'zlovchi o'z munosabatini ifodalaydi.

Miqdor konseptining sintaktik ifodasida qism-butun munosabatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida bir burda non, bir tilim qovun, bir chimdim tuz, bir qultum suv, bir tomchi yosh kabi konstruksiyalar keng qo'llanadi. Mazkur birliklarning semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular predmetning mutlaq miqdorini emas, balki butunning ma'lum bir qismini ifodalaydi. Demak, miqdor konsepti faqat sanash emas, balki bo'laklash va segmentatsiyalash jarayonlari bilan ham bog'liqdir.

Sintaktik sathdagi yana bir muhim hodisa umumlashtiruvchi miqdor konstruksiyalaridir. Hamma keldi, barcha qatnashdi, butun xalq qo'llab-quvvatladi, jami talabalar yig'ildi kabi gaplarda miqdor maksimal qamrov ma'nosini hosil qiladi. Bunday birliklarda individual predmetlar emas, balki yagona to'plam sifatida idrok etiladigan umumiy majmua tasvirlanadi.

Umumlashtirish va individuallashtirish miqdor konseptining ikki qarama-qarshi qutbini tashkil etadi. Bir tomonda bitta, bir dona, alohida, yakka kabi birliklar mavjud bo'lsa, ikkinchi tomonda hamma, barcha, jami, butun kabi birliklar joylashadi. Til tizimida ushbu ikki qutb o'rtasidagi turli oraliq darajalar miqdor konseptining murakkab semantik maydonini hosil qiladi.

Miqdor konseptining sintaktik ifodasini tahlil qilish natijasida quyidagi modelni taklif qilish mumkin:

Yadro: aniq sonlar → sanoq birliklari → o'lchov birliklari

Markaz: ko'plik shakllari → chama sonlar → jamlovchi birliklar

Periferiya: gradatsiya → metaforik miqdor → frazeologik miqdor → emotsional miqdor

Mazkur model miqdor konseptining til tizimidagi joylashuvini yaxlit holda tasavvur qilish

imkonini beradi. Unga ko'ra, miqdor konsepti faqat son kategoriyasidan iborat emas, balki tilning barcha sathlariga tarqalgan ko'p markazli semantik maydon sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, sintaktik sathdagi tahlillar miqdor konseptining murakkab kognitiv tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Miqdor inson tafakkurida sanash, qiyoslash, umumlashtirish, bo'laklash va baholash kabi bir necha bilish jarayonlari bilan bog'langan bo'lib, bu jarayonlarning barchasi tilning sintaktik tuzilishida o'z aksini topadi.

Maqolada amalga oshirilgan tahlillar miqdor konseptining til tizimidagi o'rni haqidagi mavjud qarashlarni kengaytirish imkonini beradi. An'anaviy tilshunoslikda miqdor ko'pincha son kategoriyasi bilan bog'liq holda talqin qilinib kelgan bo'lsa, olib borilgan kuzatishlar ushbu hodisaning ancha murakkab va ko'p qatlamli tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, miqdor konsepti til tizimida alohida grammatik kategoriya sifatida emas, balki turli sathlarni o'zaro bog'lovchi integral semantik mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bunday yondashuv miqdorni faqat sanash natijasi sifatida emas, balki insonning borliqni idrok etish, tasniflash va baholash jarayonlari bilan bog'liq universal kognitiv konstrukt sifatida talqin qilish imkonini beradi [6; 318–321-b.].

Tahlillar natijasida aniqlandiki, miqdor konsepti tilning barcha sathlarida turli darajada reprezentatsiyalanadi. Fonologik sathda u tovush cho'ziqligi, urg'u va intonatsiya vositasida intensivlikni ifodalasa, morfologik sathda son turkumi, ko'plik kategoriyasi, daraja shakllari, jamlilik olmoshlari va miqdor ravishlari birgalikda miqdor konseptining grammatiklashgan reprezentatsiya maydonini hosil qiladi. Leksik-semantik sathda esa miqdor eng faol ko'rinishga ega bo'lib, sonlar, miqdor bildiruvchi leksemalar, graduonimik qatorlar, metaforalar va frazeologik birliklar tarkibida aks etadi. Sintaktik sathda esa miqdor qiyoslash, umumlashtirish, bo'laklash hamda baholash konstruksiyalari vositasida ifodalanadi.

O'zbek tili materiallari asosida olib borilgan kuzatishlar miqdor konseptining markaz–periferiya tamoyili asosida tashkil topganligini ko'rsatadi. Ushbu modelda markaziy o'rinni sonlar va o'lchov birliklari egallaydi. Chunki ular miqdorni aniq va obyektiv shaklda ifodalaydi. Periferik qatlamlarda esa metaforik, emotsional va assotsiativ miqdor birliklari joylashadi. Mazkur birliklarda miqdor matematik qiymat sifatida emas, balki insoniy baholash mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tadqiqot davomida miqdor konseptining graduallik bilan uzviy bog'liqligi kuzatildi. Inson tafakkuri predmet va hodisalarni aksariyat hollarda “bor” yoki “yo'q” tamoyili asosida emas, balki ma'lum darajalar bo'yicha qabul qiladi. Shu sababli til tizimida ham miqdor ko'pincha gradatsion qatorlar shaklida namoyon bo'ladi: oz – kam – o'rtacha – ko'p – juda ko'p; kichik – kattaroq – katta – ulkan; sekin – tez – juda tez va hokazo. Bunday qatorlar miqdor konseptining dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, miqdor konseptining asosiy kognitiv vazifasi borliqdagi predmet va hodisalarni o'lchashdan ko'ra, ularni o'zaro qiyoslash va baholashdan iboratdir. Chunki real nutqda aniq sonlarga qaraganda nisbiy miqdor ifodalari ancha faol qo'llanadi. Natijada miqdor inson tafakkurida matematik kategoriya sifatida emas, balki interpretatsion kategoriya sifatida shakllanadi. Mazkur yondashuv miqdor konseptining lingvokulturologik xususiyatlarini ham chuqurroq tushunishga imkon beradi. Har bir xalq o'z madaniy tajribasi asosida muayyan miqdorlarni ramziy ma'nolar bilan bog'laydi. Shu bois miqdor konsepti universal kognitiv kategoriya bo'lishi bilan birga, milliy-madaniy xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Tadqiqot natijasida miqdor konseptining til tizimidagi reprezentatsiyasi ko'p sathli va murakkab xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Miqdor konsepti faqat son kategoriyasi doirasida namoyon bo'lmay, fonologik, morfologik, leksik-semantik va sintaktik sathlarning barchasida turli vositalar orqali ifodalanadi. O'zbek tili materiallari asosida olib borilgan tahlillar miqdor konseptining markaz va periferiya tamoyili asosida tashkil topgan semantik maydon ekanligini ko'rsatdi. Ushbu maydonning markazida son va o'lchov birliklari joylashgan bo'lsa, periferiyasida gradatsiya, metafora, frazeologiya hamda emotsional baholash vositalari joylashadi. Shuningdek, miqdor konseptining asosiy xususiyatlaridan biri uning graduallikka asoslanganligidir. Miqdor ko'pincha mutlaq emas, balki nisbiy va qiyosiy shaklda idrok etiladi. Shu sababli til tizimida miqdor konsepti va graduonimiya hodisasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Tadqiqot natijalari miqdor konseptini o'rganishda faqat grammatik yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, kognitiv, lingvomadaniy va semantik omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida turli tillar materiallari asosida qiyosiy tadqiqotlar olib borish miqdor konseptining universal va milliy-madaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 320 b.
2. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: Издательство ТГУ, 2014. – 236 с.
3. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – 6th ed. – Oxford: Blackwell

Publishing, 2008. – 529 p.

4. Hojiyev A. O‘zbek tili grammatikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 164 b.
5. Huddleston R. English Grammar: An Outline. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 215 p.
6. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.
8. Langacker R. W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 562 p.
9. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – 224 b.
10. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 456 b.
11. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – 4-е изд. – Минск: ТетраСистемс, 2008. – 272 с.
12. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 412 b.
13. Safarov F. S. O‘zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati: filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2004. – 24 b.
14. Safarov F. S. O‘zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlari. – Samarqand, 2004. – 156 b.
15. Xolmanova Z. T. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2020. – 256 b.
16. Zokirova H. R. O‘zbek tili morfonologiyasi. – Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti, 2016. – 180 b.
17. Nabiyeva D. A., Zokirova H. R. O‘zbek tili fonetikasi. – Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti, 2016. – 210 b.
18. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
19. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
20. Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind’s Hidden Complexities. – New York: Basic Books, 2002. – 440 p.